



2020 yil avgust oyi holatiga ko'ra

## Au-Pair vizasini olish uchun kerakli hujjatlar haqida eslatma

### Umumiy eslatma:

- Barcha arizachilar arizalarini **shaxsan** topshirishlari shart. **Hujjat topshirish uchun qabulga yozilish faqat internetda, elchixonaning qabulga ro'yxatga olish tizimi orqali amalga oshiriladi**
- Viza arizasi qaror qabul qilish maqsadida **Germaniyadagi xorijliklar masalalari boy'icha mas'ul idora (Ausländerbehörde)** ga yuboriladi. Shu sababdan yashash ko'zda tutilayotgan, Sizni taklif qilayotgan oilaning **manzili** (ko'cha, pochta indeksi va joy nomi) ariza blankida **to'liq** ko'rsatilishi lozim. Germaniya hududiga kirganingizdan keyin, bu haqda xorijliklar masalalari bo'yicha turar joyingizdagi mas'ul idoraga bevosita xabar qilishingiz lozim. Ushbu idora Germaniyada vaqtincha qolish bo'yicha yakunlovchi qarorni qabul qiladi.
- taklif etayotgan oila bilan qarindosh bo'lgan shaxslarning Au-Pair vizasini olish uchun topshirgan hujjatlari ko'rib chiqilmaydi.
- taklif qilayotgan oilada nemis tili ona tili yoki kamida oila doirasida muntazam ishlatiladigan til bo'lishi shart (qonunga muvofiq 2013 yil 1 avgustdan boshlab), ushbu oilaning voyaga etgan a'zolaridan biri Germaniyaning yoki Yevropa Ittifoqi/Yevropa iqtisodiy hamjamiyatiga a'zo biror bir davlatning fuqarosi bo'lishi lozim.
- ariza topshiruvchi 18 yoshdan kichik va 27 yoshdan katta bo'lmasligi lozim. Ushbu dastur asosida istiqomat qilish muddati kamida 6 oy, ko'pi bilan 1 yildir. Qoidaga ko'ra, Au-Pair sifatida faqat bir marotaba ishlash mumkin.
- arizachining nemis tilidan bilim darajasi chet tili bo'yicha bilim darajasini baholash umumevropa tizimining A1 (Gyote institutining START DEUTSCH 1 darajasiga teng) darajasiga mos kelishi talab etiladi.
- Arizani ko'rib chiqish muddati mobaynida ushbu arizaga tegishli ma'lumot arizachiga, hattoki, taklif qiluvchi oila yoki Au-Pair agentligiga ham berilmasligiga e'tibor qaratishingizni so'raymiz.
- Arizangiz borasida ijobiy qaror qabul qilinsa, elchixona xodimlari Siz bilan bog'lanadi. Rad javoblari faqat yozma ravishda yuboriladi yoki arizachi tomonidan shaxsan olib ketilishi mumkin
- Tajribaga muvofiq viza arizasini **ko'rib chiqish muddati 6 – 8 haftani** tashkil etadi va ba'zi xollarda muddat farqlanishi mumkin
- **Viza badali 75 yevroni** tashkil etadi va to'lov ariza topshirilayotganda **faqat o'zbek so'mida** (amaldagi kurs bo'yicha) amalga oshiriladi. Kupyuralar 2001 yildan eski bo'lmasligi, yaxshi holatda, muhr va yozuvlarsiz bo'lishi shart



### **Ariza topshirish uchun quyidagi hujjatlar talab qilinadi:**

Eslatma: arizaga taaluqli hujjatlarning **DIN A4 formatidagi** nusxalarini quyidagi tartibda **sahifalarini biriktirmagan xolda ikkita to'liq to'plamga** ajrating. Uchinchi to'plam huddi shu tartibda, hujjatlarning aslidan iborat bo'lishi lozim. Hujjatlarning asli viza bo'limi tomonidan Sizga qaytariladi.

- Nemis tilida batafsil to'ldirilgan va imzolangan 2 ta viza ariza blanki hamda 3 dona biometrik fotosurat. (2ta fotosurat ariza blankiga yelimgan bo'lishi kerak).** Blankni elchixonaning internetdagi [www.taschkent.diplo.de](http://www.taschkent.diplo.de) web-sahifasidan olishingiz mumkin.
- Germaniya Federativ Respublikasi hududida istiqomat qilish shartlari haqidagi qonunning § 54, 2 abzatsi, 8 punkti hamda §53 ga muvofiq **imzolangan izoh.**
- kamida bir yil amal qilish muddatiga ega bo'lgan pasportingiz** va uning shaxsiy ma'lumotlar kiritilgan sahifasidan nusxa
- Sizni taklif qilayotgan oila bilan tuzilgan Au-Pair shartnomasi** (shartnoma namunasini internetdagi [www.arbeitsagentur.de](http://www.arbeitsagentur.de) sahifasidan olishingiz mumkin) va **qabul qiluvchi oila ota-onasining passport nusxalari.**
- Tubbiy sug'urta mavjudligini tasdiqlovchi hujjat** (odatda, taklif qilayotgan oila tomonidan rasmiylashtirilgan tubbiy sug'urta shartnomasi; Germaniya hududiga kirgandan keyingi dastlabki 90 kun uchun mahalliy sug'urta kompaniyasi bilan tuzilgan tubbiy sug'urta polisi yordam tariqasida amal qiladi).
- Nemis tili bo'yicha A1 boshlang'ich bilim darajasi haqida tasdiqnoma,** yoki arizachining tilni bilishi viza jarayonida kunlik mavzularning biri haqida suhbat orqali ham tekshirilishi mumkin.
- Arizachi tomonidan yozilgan va imzolangan safarni asoslovchi xat.** Unda Au-Pair bo'lib ishlashdan maqsad va kasb bo'yicha kelajakdagi rejalar aniq ifodalanishi lozim. Agar xat nemis tilida bo'lmasa, uning tarjimasini ilova qiling.
- Manzil va bog'lanish manbaalari ko'rsatilgan **to'liq tarjimai xol.** Agar nemis tilida bo'lmasa, uning tarjimasini ilova qiling.
- Germaniyaning mahsulot sifatini kafolatlash va tamg'alash institutining sertifikatiga (RAL-Gütezeichen) ega bo'lgan agentlikning vositachilik xizmatlaridan foydalanilganda, shartnoma „pdf“ formatida yoki faks orqali kelgan nusxa ko'rinishida, agentlik sertifikatini nuxxasi bilan taqdim etilishi mumkin. Ushbu imkoniyat Au-Pair munosabati arizachi tomonidan shaxsan yoki internet orqali amalga oshirilgan holatlarda mavjud emas. Sertifikatga ega bo'lgan agentliklar haqidagi ma'lumotlarni [www.guetegemeinschaft-aupair.de](http://www.guetegemeinschaft-aupair.de) web-sahifasidan olishingiz mumkin.